

## Aql charxi shaxmat bilan

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-apreldagi PF-6208-sonli Farmoni, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 29-apreldagi 202-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash yuzasidan, Toshkent shahar Mirzo-Ulug'bek tumanidagi "Mirzakalon Ismoiliy" M.F.Y. bilan TIQXMMI "Qishloq va suv xo'jaligi energiya ta'minoti" fakulteti hamkorligida Prezidentimizning 5 ta muhim tashabbusi doirasida 2021 yil 6 iyun kuni mahalla yoshlari va faollari ishtirokida sportning shaxmat-shashka turi bo'yicha musobaqa o'tkazildi.



Tadbirda "Mirzakalon Ismoiliy" M.F.Y. Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy manaviy masalalar bo'yicha rais o'rinbosari Iqbolova Feruza Jafarovna, M.F.Y. Nuroniylar kengashi raisi professor Karimov Rustam Salimovich, Raisning yoshlar ishlari bo'yicha o'rinbosari Xamroev Iskandar, shuningdek, "Qishloq va suv xo'jaligi energiya ta'minoti" fakulteti dekani professor A.J.Isakov va ETvaEJF kafedrasi assistenti Sh.Yusupovlar ishtirok etishdi. Sport musobaqasi mahalla yoshlarida katta qiziqish uyg'otdi. Musobaqa yakunida g'oliblarga kitoblar va sovg'alar topshirildi.



**TIQXMMI matbuot xizmati**